

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi ichki audit xizmatining
2026-yil I-yarim yillik faoliyati natijalari bo‘yicha
HISOBOTI

1. Umumiy ma’lumotlar.

Agentlikning 2024-yil 12-avgustdagi 30-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan markaziy apparat tuzilmasida ichki audit xizmati sifatida 1 ta shtat birligidan iborat mustaqil tarkibiy tuzilma etib tashkil etilgan. Mazkur lavozimda Agentlikning 2026 yil 4-maydagi 1091-sonli burug‘i bilan ishlayotgan Yunusov Sobir Norboevich IAMMS 0947-sonli malaka sertifikatiga ega (*2025-yil oktyabr oyidan 2026-may oyiga qadar ushbu lavozim vakant bulgan.*)

Agentlik tizimida 3 (uch) ta budget va 3 (uch) ta xo‘jalik hisobidagi muassasalar mavjud (*1-jadval*).

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Agentlikning ish rejasi 2026 yil 29 iyunda Hisob palatasi bilan kelishilgan holda tasdiqlandi. Unga ko‘ra, 3 ta ichki audit ob‘ektida audit tadbiri, jumladan,

- O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (O‘zMMI)da 2026-yilning 1-yanvaridan 30-iyunigacha bo‘lgan davrda (yarim yillik) rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini maqsadli indikatorlar asosida baholash tadbiri;

- O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida 2025-yilning 1-yanvaridan 2025 yilning 31-dekabrigacha bo‘lgan davrda byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, byudjet hisobining yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlarning shakllantirilishi bo‘yicha ichki audit tadbiri;

- O‘zbekiston milliy metrologiya institutida 2025-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrigacha bulgan davrda davrda byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, moliya-xujalik faoliyatini tashkil etilishi, ichki nazorat tizimlariga baho berish;

- O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (O‘zMMI)da 2026-yilning 1-yanvardan 1-oktyabrigacha bo‘lgan davrda rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini maqsadli indikatorlar asosida baholash tadbiri;

- O‘zbekiston standartlar institutida 2025-yil 1-iyuldan 2026-yil 1-oktyabrigacha bulgan davrda (3-chorak) davrda byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘tgan 2026-yilning 1-yarim yilligida audit shtat birligi vakant bo‘lganligi sababli Agentlikning yilik ish rejasi ishlanmagan va tasdilanmagan. Shunga ko‘ra, 2026-yil 1-yarim yilligida Agentlikda audit tadbirlari o‘tkazilmadi (*2, 3, 4 va 5-jadvallar*).

3. Hisobot davrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Hisobot davrida ichki audit ob‘ektida audit tadbirlari rejalashtirilmagan. Agentlikda 2025-yil oktyabr oyidan 2026-yil may oyiga qadar ichki audit xizmati vakant hisoblangan va ushbu sabablarga ko‘ra audit tadbirlari o‘tkazilmadi.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Audit tadbiri o'tkazilmagan va tavsiyalar berilmagan (6-jadval).

5. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

2024-2026-yillarda 8 ta risk yo'nali bo'yicha 489 ta xavflar yuborilgan bo'lib, ichki audit shtat birligi vakant bulganligi sababli ushbu vaziflar bajarilmagan. Joriy yilning 6-iyul sanasida Agentlik rahbariyatining ko'rsatmasi asosida 313 ta xavflar o'rganildi va Hisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali xavflar tahlili tasdiqlash uchun yuborilishiga erishildi (7-jadval).

6. Davlat organi va tashkiloti tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar.

Agentlikning ichki audit xizmati xodimlarining malakasini oshirish 2026-yilning 2-choragiga mo'ljallangan va amalga oshirilgan (8-jadval).

7. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar (taklif va tavsiyalar).

Tegishli ma'lumotlar mavjud emas. (9-jadval).

8. Davlat organi va tashkiloti faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida xarajatlar smetasi va jamlanma xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali hamda ularga qo'shimcha hujjatlarni tuzilishi va ro'yxatdan o'tkazilishini joriy yilning 3-choragida rejalashtirilgan (10-jadval).

9. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Xarajatlar smetasini tuzishda iqtisod qilish prinsipiga rioya to'g'risida takliflar ishlab chiqilmoqda va bu bo'yicha qo'shimcha axborotlar kiritib boriladi.

10. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash natijalari.

Xodimlar faoliyati samardorligi past baholandi (10, 10.1, 10.2, 10.3 va 10.4-jadvallar).

11. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati tashkil etilishi.

Moliyaviy ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, samaradorligini oshirish bo'yicha o'zining uch oylik nazorat rejasi ishlab chiqildi:

- nazorat-rejaga muvofiq 2026 yil 1-3 iyun kunlari Xizmatning Nizomini ishlab chiqildi. Bunda, ichki audit tadbirlari ichki auditning **17 ta milliy standartlari va ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi asosida talablar shakllantirildi.**

- Hisob palataning 08.10.2025 yildagi 02-1448-sonli ko'rsatma xati va Moliyaviy ichki audit xizmatining yangi Nizomi tasdiqlangandan so'ng auditning

lavozim yo'riqnomasi ishlab chiqildi va rasmiylashtirildi. Bajarilgan ishlar to'g'risida Hisob palataga axborot berildi (29.07.2026y, №02-20-2887) .

- Ichki audit yillik rejasini ichki audit xizmati **to'monidan xavf tahlili** asosida **hamda mavjud vaqt va inson resurslarini** hisobga olgan holda **bir kalendar yil uchun** ishlab chiqildi. Unda, ichki audit ob'ektlari ro'yxatini shakllantirish; ichki audit ob'ektlarining xavf darajasini baholash; ichki audit xizmatidagi mavjud resurslarni (inson va vaqt resurslari) aniqlash; ichki audit yillik rejasini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi bilan kelishish va tasdiqlash belgilandi.

- **2024-2026 yillarda** ichki audit bo'yicha **30 dan ortiq** so'ngi normativ hujjatlari bo'yicha **226 dan ortiq talablar** belgilangan bo'lib, **ulardan 30 dan ortiq** talablar ijrosi to'liq ta'minlandi.

Yunusov Sobir Norboevich

Ichki audit xizmati rahbari

(imzo)

(kun, oy, yil)